

## I. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022- yil 1- oktabr holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni (*fermer va dehqon xo'jaliklarisiz*) 25 801 taga yetdi, shundan faoliyat ko'rsatayotganlari soni 24 610 tani yoki jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,4 foizni tashkil qildi.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Navoiy shahrida (22,8 foiz), Karmana (15,5 foiz), Qiziltepa (13,3 foiz) va Xatirchi (11,7 foiz) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



**Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Ro'yxatga olingan</i>		<i>Faoliyat ko'rsatayotgan</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>25 801</b>	<b>100,0</b>	<b>23 929</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	5 875	22,8	5 539	22,5
Zarafshon sh.	1 889	7,3	1 790	7,3
G'ozg'on sh.	365	1,4	345	1,4
Konimex t.	1 065	4,1	1 015	4,1
Qiziltepa t.	3 431	13,3	3 255	13,2
Navbahor t.	2 706	10,5	2 555	10,4
Karmana t.	3 998	15,5	3 859	15,7
Nurota t.	1 747	6,7	1 672	6,8
Tomdi t.	689	2,7	636	2,6
Uchquduq t.	1 030	4,0	1 021	4,1
Xatirchi t.	3 006	11,7	2 923	11,9

### Ro'yxatdan o'tgan sub'ektlarning hududlar bo'yicha ulushi, (% da)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (jami ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning (34,6 foiz), sanoat (16,0 foiz), qurilish (7,2 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (12,0 foiz) sohalariga to'g'ri keldi.



### Ro'yxatga olingan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (2022- yil 1- oktabr holatiga)

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>25 801</b>	<b>100,0</b>	<b>24 610</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 096	12,0	2 970	12,1
sanoat	4 127	16,0	3 942	16,0
qurilish	1 848	7,2	1 772	7,2
savdo	8 931	34,6	8 524	34,6
tashish va saqlash	812	3,1	780	3,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 590	6,2	1 499	6,1
axborot va aloqa	304	1,2	286	1,2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	366	1,4	356	1,4
boshqa turlari	4 727	18,3	4 481	18,2

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)



**Qishloq, o'rmon va  
baliqchilik xo'jaligi**



**Sanoat**



**Qurilish**



**Savdo**



**Tashish va saqlash**



**Yashash va ovqatlanish  
bo'yicha xizmatlar**



**Axborot va aloqa**




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy  
xizmatlar ko'rsatish**



**Boshqa turlar**


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektlarning ulushi 95,4 foizni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,6 foizni tashkil etganligini ko'rsatmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




2022- yil 1- oktabr holatiga 24 610 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5 814 ta, oilaviy korxonalar – 4 167 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 12 189 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 17 ta, unitar korxonalar – 39 tani va 171 tani boshqa tijorat korxonalarini tashkil etadi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy- huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil yanvar- sentabr oylarida jami 3 357 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, 2021- yilning shu davriga nisbatan 79,6 foizni tashkil etdi, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (551 ta), Karmana (391 ta), Qiziltepa (472 ta), Xatirchi (395 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Eng kam esa Tomdi (129 ta) tumani va G‘ozg‘on shahar (85 ta) tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi savdoda 30,2 foiz, sanoatda 23,1 foiz, qurilishda 4,2 foiz va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 17,2 foizni tashkil etdi.

2022- yil 1- oktabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining soni 22 296 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,9 foizga oshdi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining asosiy qismi, ya‘ni 4 911 tasi (jami sub‘ektlarning 22,0 foizi) Navoiy shahri, 3 587 tasi (16,1 foizi) Karmana, 3 015 tasi (13,5 foizi) Qiziltepa, 2 623 tasi (11,8 foizi) Xatirchi hamda 2 372 tasi (12,0 foizi), Navbahor tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

Eng kam faoliyat ko‘rsatayotganlar esa 555 tasi (2,5 foizi) Tomdi, 879 tasi (3,9 foizi) Konimex tumanlari, 311 tasi (1,4 foizi) G‘ozg‘on shahar hissalariga to‘g‘ri keladi.



**Ro'yxatdan o'tgan kichik biznes sub'ektlari**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>Jami</i>	<i>Faoliyat yuritayotgan</i>	<i>Faoliyat yuritmayotgan</i>	<i>2022- yil yanvar-iyul oylarida yangidan tashkil etilgan</i>	<i>2022- yil yanvar- iyul oylarida faoliyati tugatilgan</i>	<i>1000 kishiga to'g'ri keladiga KB sub'ektlari</i>
<b>Jami</b>	<b>23 384</b>	<b>22 296</b>	<b>1 088</b>	<b>3 244</b>	<b>1 118</b>	<b>21,2</b>
Navoiy sh.	5 200	4 911	289	509	150	31,7
Zarafshon sh.	1 742	1 650	92	284	103	19,1
G'ozg'on sh.	330	311	19	82	10	34,6
Karmana t.	3 721	3 587	134	380	112	26,6
Konimex t.	926	879	47	183	69	23,6
Qiziltepa t.	3 179	3 015	164	462	113	19,0
Navbahor t.	2 515	2 372	143	339	78	20,1
Nurota t.	1 559	1 488	71	205	35	17,0
Tomdi t.	602	555	47	122	34	35,4
Uchquduq t.	910	905	5	289	173	23,3
Xatirchi t.	2 700	2 623	77	389	241	12,6


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hududlar bo'yicha soni**

	<i>2021- yil 1- oktabr holatiga</i>		<i>2022- yil 1- oktabr holatiga</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>20 849</b>	<b>100,0</b>	<b>22 296</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	4 622	22,2	4 911	22,0
Zarafshon sh.	1 476	7,1	1 650	7,4
G'ozg'on sh.	188	0,9	311	1,4
Konimex t.	813	3,9	879	3,9

	2021- yil 1- oktabr holatiga		2022- yil 1- oktabr holatiga	
	birlik	jamiga nisbatan, % da	birlik	jamiga nisbatan, % da
Qiziltepa t.	2 752	13,2	3 015	13,5
Navbahor t.	2 156	10,3	2 372	10,6
Karmana t.	3 384	16,2	3 587	16,1
Nurota t.	1 431	6,9	1 488	6,7
Tomdi t.	479	2,3	555	2,5
Uchquduq t.	979	4,7	905	4,1
Xatirchi t.	2 569	12,3	2 623	11,8

Faoliyat ko'rsatayotgan jami 22 296 ta kichik tadbirkorlik sub'ektlarining 8 508 tasi (38,2 foizi) – savdoda, 3 910 tasi (17,5 foizi) - sanoatda, 2 933 tasi (13,2 foizi) - qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 1 761 tasi (7,9 foizi) - qurilishda, 1 494 tasi (6,7 foizi) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 772 tasi (3,5 foizi) - tashish va saqlashda, 285 tasi (1,3 foizi) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 278 tasi (1,2 foizi) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 2 355 tasi (10,6 foizi) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keldi.

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 1- oktabr holatiga ko'ra) birlikda**




2022- yil 1- oktabr holatiga Navoiy shahrida jami ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining umumiy sonida faoliyat ko‘rsatmayotganlarning ulushi 5,6 foizni (289 ta), Navbahor tumanida esa ro‘yxatdan o‘tganlarning jami sonida 0,6 foizni (143 ta), Karmana 0,6 foizni (134 ta), Xatirchi 0,3 foizni (77 ta), Konimex 0,2 foizni (47 ta) va Tomdi tumani 0,2 foizni (47 ta) tashkil qilgan.

Hisobot davrida 1118 ta kichik tadbirkorlik sub‘ektlarining faoliyati tugatilgan bo‘lib, ulardan sanoat 292 ta (26,1 foizi), savdo 463 ta (41,4 foizi), qurilish 51 ta (4,6 foizi) hamda qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi 111 ta (9,9 foizi) sohalariga to‘g‘ri keladi.

2022- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapital ishtirokidagi korxonalar soni 254 tani tashkil etdi. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 154 tasi qo‘shma korxonalar, 100 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2022- yil 1- oktabr holatiga)



### Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo‘shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni

	Jami	shundan:	
		Qo‘shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami</b>	<b>254</b>	<b>154</b>	<b>100</b>
Navoiy sh.	78	55	23
Zarafshon sh.	17	9	8
G‘ozg‘on sh.	4	2	2
Konimex t.	7	4	3
Qiziltepa t.	15	10	5
Navbahor t.	11	6	5



	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>Xorijiy korxonalar</i>
Karmana t.	74	43	31
Nurota t.	23	14	9
Tomdi t.	7	6	1
Uchquduq t.	9	1	8
Xatirchi t.	9	4	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahri 78 ta (30,7 foiz) va Karmana 74 ta (29,1 foiz) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar G'ozg'on shahrida 4 ta (1,6 foiz), Tomdi tumanida 7 ta (2,8 foiz), Uchquduq tumanida 9 ta (3,5 foiz), Konimex tumanlarida 7 tadan (2,8foiz), Xatirchi 9 tadan (3,5 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar bo'yicha soni va ulushi**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>254</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	78	30,7
Zarafshon sh.	17	6,7
G'ozg'on sh.	4	1,6
Konimex t.	7	2,8
Qiziltepa t.	15	5,9
Navbahor t.	11	4,3
Karmana t.	74	29,1
Nurota t.	23	9,1
Tomdi t.	7	2,8
Uchquduq t.	9	3,5
Xatirchi t.	9	3,5

Faoliyat ko'rsatayotgan 254 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, 144 tasi (56,7 foiz) sanoat, 30 tasi (11,8 foiz) savdo, 31 tasi (12,2 foiz) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, 4 tasi (1,6 foiz) tashish va saqlash, 18 tasi (7,1 foiz) qurilishda, 4 tasi (1,6 foiz) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 1 tasi (0,4 foiz) axborot va aloqa, 3 tasi (1,2 foiz) sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 19 tasi (7,5 foiz) boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi**  
(2022- yil 1- oktabr holatiga)

	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>254</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	144	56,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	31	12,2
qurilish	18	7,1
savdo	30	11,8
tashish va saqlash	4	1,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1,6
Axborot va aloqa	1	0,4
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1,2
boshqa turlari	19	7,5

2022- yil yanvar- sentabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 20 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6 taga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi-4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-4 ta, Turkiya Respublikasi - 2 ta, Pokiston Islom Respublikasi-1 ta, Angilya-1 ta, Afg'oniston- 1 ta, Eron Islom Respublikasi- 1 ta va boshqalar-6 ta.

20 ta yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Navoiy (7 ta) shahar, Karmana (6 ta) tuman, G'ozg'on (2 ta) shahar, Zarafshon shahri, Nurota va Navbahor (1) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining hududlar kesimidagi soni va ulushi**

	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, % da</i>
<b>Jami</b>	<b>20</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	7	35,0
Zarafshon sh.	1	5,0
G'ozg'on sh.	2	10,0
Konimex t.	-	-
Qiziltepa t.	1	5,0
Navbahor t.	1	5,0
Karmana t.	6	30,0
Nurota t.	1	5,0
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	1	5,0
Xatirchi t.	-	-

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 14 ta, qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligida 2 ta qurilishda 2 ta va boshqa tarmoqlarda 2 tadan.

2022- yil 1- oktabr holatiga 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalar hisoblanib, shundan Navoiy shahri (2 ta), Karmana (1 ta), Tomdi tumani (1 ta), Qiziltepa tumani (1 tadan) hissasiga to'g'ri keldi.

**Oilaviy korxonalar.** Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga 4 384 tani tashkil etib, ulardan 4 167 tasi yoki 95,0 foizi faoliyat yuritmoqda.

2022- yil 1- oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,4 foizga yoki 151 taga ko'paydi.

